

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari pedagog kadrlari attestatsiyasi: yakun va xulosalar

2014 yil 28 may kuni O'zbekiston Respublikasi Milliy matbuot markazida Davlat test markazi tomonidan "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari pedagog kadrlari attestatsiyasi: yakun va xulosalar" mavzusidagi matbuot anjumani o'tkazildi.

Anjumanda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Anjumanda pedagog kadrlari attestatsiyasi yakunlari va undan kelib chiqadigan xulosalarga oid ma'ruza tinglandi.

Ma'ruzachi: Uzluksiz ta'lim tizimida professor-pedagoglar tarkibini va rahbar kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish bo'limi boshlig'i Q.Baymirov.

Ma'ruzada Xalq ta'limi vazirligi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi pedagog kadrlar attestatsiyasiga oid ma'lumotlar berildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari va Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasida Muvofiqlashtiruvchi 14 ta komissiya – oliy malaka toifasiga da'vogarlar attestatsiyasini o'tkazishi;

tuman (shahar) xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limlarida 195 ta komissiya – birinchi malaka toifasiga da'vogarlar attestatsiyasini o'tkazishi;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida 9685 ta komissiya – ikkinchi malaka toifasiga da'vogarlar attestatsiyasini o'tkazishi aytib o'tildi.

Pedagog kadrlarga malaka toifalari 5 yil muddatga berilishi va ularga sertifikat topshirilishi haqida ham ma'lumotlar berildi.

Komissiyalar tomonidan 2011-2013 yillar davomida 240641 nafar xalq ta'limi tizimi pedagog kadrlari attestatsiyadan o'tkazilgan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari pedagog xodimlari attestatsiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalarida tashkil etiladigan attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshirilishi hamda pedagog xodimlarga bosh, yetakchi va katta o'qituvchi lavozimlari 3 yil muddatga berilishi va ularga guvohnoma topshirilishi haqida ma'lumotlar berildi.

2011-2014 yillarda akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining 65070 nafar pedagog xodimlari attestatsiyadan o'tkazilgan.

Anjumanda ommaviy axborot vositalari xodimlari tomonidan savollar berildi va ularga javoblar qaytarildi.

Jumladan, malaka toifalari va sertifikatlarning ahamiyati, malaka sinovlarining o'tkazilishi, pedagog kadrlarning attestatsiyadan xabardor qilinishiga oid savollar berildi.

Komissiya pedagog kadrlarga malaka toifalari berilganligi haqida xulosa qabul qiladi va xulosalar attestatsiya varaqasi hamda bayonnomaga rasmiylashtiradi. Sertifikatlar qat'iy hisobda turadigan, himoya va seriya raqamiga ega hujjat hisoblanishi va 5 yil muddatga berilishi, oliy, birinchi va ushbu malaka toifalariga da'vogarlarning malaka sinovlari Davlat test markazi va Xalq ta'limi vazirligi

tomonidan belgilanishi hamda pedagog kadrlarga bir oy oldin attestatsiyadan o'tishi haqida ma'lum qilinishi haqida ma'lumotlar berildi.